



U.S. DEPARTMENT OF STATE

TRAVEL.STATE.GOV BUREAU OF CONSULAR AFFAIRS

## 2025 YIL TURLI MILLATGA MANSUB IMMIGRANTLAR VIZASI DASTURI (DV-2025) YO'RIQNOMASI

### Dastur haqida ma'lumot

Kongress qarori bilan joriy etilgan “DV-Turli millatlarga mansub immigrantlar visa dasturi” har yili Davlat Departamenti tomonidan boshqariladi. Immigratsiya va Fuqarolik Aktining (IFA) 203(c) bo'limi Amerika Qo'shma Shtatlariga tarixan immigratsiya ko'rsatkichi past davlatlardan bo'lган” turli millatlarga mansub immigrantlar” deb ataluvchi immigrantlar sinfini joriy etadi. 2025-soliq yilida 55000 nafar “turli millatlarga mansub immigrantlar” (DV) vizalari mavjud bo'ladi. DV dasturida ro'yxatdan o'tish bepul, ammo suhabat kuni belgilangan dastur g'oliblari, viza talablariga muvofiqliklari bo'yicha Konsul Ofitseri tarafidan ko'rib chiqiladigan viza murojaatidan avval, [viza uchun to'lov](#)ni amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Dasturda tanlab olinganlar (saralanganlar) “Turli millatlarga mansub immigrantlar” vizalarini olishga muvofiq bo'lislari uchun dasturning oddiy, lekin qat'iy talablariga muvofiq bo'lislari shart. Davlat Departamenti saralanganlarni kompyuterlashtirilgan tasodifiy lotereya tanlovi orqali aniqlaydi. Davlat Departamenti vizalarni olti jug'rofiy mintaqalar orasida taqsimlaydi va hech qaysi bir davlatga bir yil ichida DV vizalarining yetti foizidan ortig'i berilmaydi.

Quyidagi davlatlar hududida tug'ilgan shaxslar DV-2025 da ishtirok etishlari mumkin emas, chunki so'nggi besh yil davomida bu davatlarda tug'ilgan umumiyligi soni 50000dan ortiq shaxs AQShga immigratsiya qilgan:

Bangladesh, Braziliya, Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, (shu jumladan materik qismi va Gonkong), Kolumbiya, Dominikana Respublikasi, Salvador, Gaiti, Gonduras, Hindiston, Yamayka, Meksika, Nigeriya, Pokiston, Filippin, Janubiy Koreya, Venesuela, va Vietnam.

Aomin' (Makao) maxsus ma'muriy okrugi va Tayvandda tug'ilgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

**DV-2025 dastur yilida ishtirok etishi mumkin bo'lgan Birlashgan Qirollik va unga qaram hududlardan tashqari, o'tgan soliq yili ishtirok etishi mumkin bo'limgan davlatlar ro'yxatida o'zgarish bo'lmedi.**

### Ishtirok etish uchun talablar

**1- Talab: Amerika Qo'shma Shtatlariga tarixan immigratsiya ko'rsatkichi past davatlarda tug'ilgan shaxslar ro'yxatdan o'tishga haqli bo'lishi mumkin.**

Agar siz Amerika Qo'shma Shtatlariga tarixan immigratsiya ko'rsatkichi past davatlarda tug'ilgan bo'lmasangiz, sizning ishtirok talablariga javob berishingizning yana ikki ehtimolligi bor.

- Sizning turmush o'rtog'ingiz Amerika Qo'shma Shtatlariga tarixan immigratsiya ko'rsatkichi past davlatda tug'ilganmi? Agar javobingiz ijobjiy bo'lsa, siz turmush o'rtog'ingizning tug'ilgan davlatiga tegishlilikni da'vo qilishingiz mumkin. Bunday hollarda, saralangan arizada sizning va turmush o'rtog'ingizning ismlari ko'rsatilgan bo'lisi, DV vizalarini olish talablariga muvofiq bo'lishingiz, va vizalarni olishingiz, hamda AQShga bir vaqtda safar qilishingiz shart bo'ladi.
- Siz Amerika Qo'shma Shtatlariga tarixan immigratsiya ko'rsatkichi past bo'lмаган davlatda tug'ilgansiz, lekin ota-onangizdan birortasi ham bu davlatda tug'ilмаган yoki ular siz tug'ilgan vaqtda o'sha davlatda qonuniy ravishda doimiy istiqomat qilmaganmi? Javobingiz ijobjiy bo'lsa, siz ota-onangizdan birining tug'ilgan davlatiga, agar uning mahalliy aholisi DV-2025 dasturining talablarini qoniqtiruvchi davlat bo'lsa, tegishlilikni da'vo qilishingiz mumkin. Buning ma'nosi haqida batafsil ma'lumot uchun [Ko'п So'raladigan Savollarni](#) ko'rib chiqing.

**2 – Talab:** Har bir murojaatchi DV dasturining ta'lif/ish tajribasi talabiga javob berishi shart:

- eng kamida o'rtaga yoki unga tenglashtirilib, 12 yillik rasmiy boshlang'ich va o'rtaga ta'lifni muvaffaqiyatli tamomlash deb belgilanuvchi ta'limga ega bo'lish;

## YOKI

- so'nggi besh yil ichida eng kamida ikki yillik tayyorlov yoki tajriba talab qiluvchi faoliyatda ikki yillik ish tajribaga ega bo'lish. Muvofiq mehnat malakasini aniqlash uchun Davlat Departamenti AQSh Mehnat Departamentining [O\\*Net OnLine](#) ma'lumotlar bazasini qo'llaydi.

Muvofiq mehnat malakasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot uchun [Ko'п So'raladigan Savollar](#) ga qarang.

Mazkur talablardan ikkisiga ham javob bermasangiz, DV dasturiga ariza topshirmang.

## Ro'yxatdan o'tish davri

DV-2025 "Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar" dasturiga arizalar elektron shaklda [dvprogram.state.gov](#) veb-sahifasida Sharqiy Yozgi Vaqt (EDT) (GMT-4) bilan 2023 yil, 4 oktyabr', chorshanba kuni soat 12:00 dan boshlab, Sharqiy Standart Vaqt (EST) (GMT-5) bo'yicha 2023 yil, 7 noyabr', seshanba kuni soat 12:00 gacha topshirilishi kerak. Ro'yxatga olinish davrining so'nggi haftasigacha kutmang, chunki yuqori talab veb-sahifa faoliyatining sekinlashuviga olib kelishi mumkin. Kech topshirilgan va qog'oz nusxadagi arizalar qabul qilinmaydi. Qonun ro'yxatga olish davrida har bir shaxs uchun faqat bitta ariza topshirilishiga ruxsat beradi. Davlat Departamenti bittadan ortiq kiritilgan arizalarni aniqlash uchun murakkab texnologiyalardan foydalanadi. **Bittadan ortiq ariza topshirish sizni DV dasturidan chetlatishga olib keladi (diskvalifikatsiya).**

## DV-2025 dasturiga ariza topshirish tartibi

Turli Millatlarga Mansub Immigrantlar Vizalari Arizasi Shakli (E-DV Arizasi Shakli yoki DS-5501)ni elektron ravishda [dvprogram.state.gov](#) veb-sahifasida topshiring. To'liq bo'lмаган arizalarni qabul qilmaymiz. Arizani topshirish uchun to'lov olinmaydi. Iltimos, arizangizni topshirayotganingizda yangilangan brauzerdan foydalaning; eskirgan brauzerlar (masalan: Internet Explorer 8) bilan DV elektron tizimida muammolarga duch kelish mumkin.

Arizani shaxsan o‘zingiz, “viza konsul’tantlari”, “viza xizmatlari agentlari” va boshqa shu kabi “yordamchilar”siz to‘ldirishingizni maslahat beramiz. Agar biror kishi sizga ko‘maklashsa ham, ariza sizning huzuringizda to‘ldirilishi lozim. Shunda siz savollarga to‘g‘ri javoblar taqdim eta olasiz va tasdiqlov varag‘i bilan xususiy tasdiqlov raqamingizni qo‘lingizga olasiz. Tasdiqlov varag‘i bilan xususiy tasdiqlov raqamingizni o‘zingiz uchun saqlab qo‘yishingiz o‘ta muhimdir. Bizga ma’lumki, insofsiz viza agentlari murojaatchilarga ilk ariza topshirish vaqtida ko‘mak beradilar, chop etilgan tasdiqlov sahifasini qoldirib, so’ngra tasdiq raqami evasiga ko‘proq to‘lov yoki noqonuniy harakat talab etadilar. Mazkur ma’lumotlarsiz dasturdagi maqomingizni bilish uchun Internet tizimiga kira olmaysiz. Biror boshqa kishi sizning o‘rningizga bu ma’lumotlarni saqlab qo‘yishni taklif etsa, ehtiyoj bo‘ling. Shuningdek, siz E-DVda ko‘rsatgan elektron pochtaga kirish huquqini saqlab qo‘yishingiz kerak. DV dasturiga oid firibgarlik haqida ma’lumotlar uchun [Ko‘p So‘raladigan Savollarni](#) ko‘rib chiqing.

To‘liq ariza ro‘yxatdan o‘tkazilganda ekranda sizning ismingiz va maxsus xususiy tasdiqlov raqami tasvirlangan tasdiqlov sahifasini ko‘rasiz. Mazkur tasdiqlov sahifasini ma’lumotingiz uchun printerdan chop etib oling. 2024 yil, 4-maydan boshlab, siz [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov) sahifasiga qaytib kirib, Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasini (Entrant Status Check) bosgan holda, o‘z xususiy tasdiqlov raqamingiz va shaxsiy ma’lumotlaringizni kiritib, arizangizning maqomini (statusini) tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Siz Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check)dan foydalanib, DV-2025 dasturida saralanganingizni va saralangan bo‘lsangiz, arizangizni qanday davom ettirish bo‘yicha yo‘riqnomani ko‘rishingiz mumkin. AQSh hukumati bu haqda sizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabar bermaydi. Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) murojaatingizga bog‘liq keyingi bosqichlar haqidagi yo‘riqnomaning yagona manbasidir. Agar siz saralangan bo‘lsangiz va viza uchun ariza va kerakli hujjatlarni taqdim qilsangiz, siz immigratsion viza suhbatingiz sanasini tekshirish uchun Entrant Status Checkdan foydalanishingiz kerak. Saralash jarayoni haqida qo‘srimcha ma’lumot uchun [Ko‘p So‘raladigan Savollarni](#) ko‘rib chiqing.

Elektron arizangiz (E-DV)ni to‘ldirish uchun quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishingiz shart. Barcha talab etilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri kiritmaslik sizni DV dasturidan chetlatishga olib keladi:

1. Ism–familiya, ism, ikkinchi ism, agar pasportingiz bo‘lsa, aynan pasportda ko‘rsatilganidek kriting (masalan, pasportingizda faqatgina ism va familiya kiritilgan bo‘lsa, familiya, so‘ng ismingizni kriting; agar pasportingizda ikkinchi ism (middle name) kiritilmagan bo‘lsa, u holda ikkinchi ism kiritmang. Agar pasportingizga ism, ikkinchi ism va familiya kiritilgan bo‘lsa, u holda ushbu tartibda kriting: familiya, ism, ikkinchi ism). Agar sizda faqatgina ism bo‘lsa, u holda ismnini familiya qismiga kriting.
2. Jins – erkak yoki ayol.
3. Tug‘ilgan sana – kun, oy, yil.
4. Siz tug‘ilgan shahar.
5. Siz tug‘ilgan mamlakat – Mamlakat nomi hozirgi paytda siz tug‘ilgan joyga nisbatan qo‘llaniladigan nom bo‘lishi kerak.
6. DV dasturi uchun davlat muvofiqligi yoki tegishliligi – Mamlakatingizning muvofiqligi odatda sizning tug‘ilgan yurtingiz bilan bir xil bo‘ladi. Sizning mamlakatingiz muvofiqligi sizning qayerda yashashingiz yoki fuqaroligingizga bog‘liq emas, agar u tug‘ilgan mamlakatingizdan farqli bo‘lsa. Agar siz DV dasturida qatnashishga haqli mamlakatda tug‘ilmagan bo‘lsangiz, mamlakat tegishliligi bo‘yicha [Ko‘p So‘raladigan Savollarni](#) ko‘zdan kechiring va u yerdan

mamlakat tegishliligi bo'yicha siz uchun biror imkoniyatlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlang.

7. Arizachilarning fotosuratlari – O'zingiz va arizangizga kiritilgan turmush o'rtog'ingiz va barcha farzandlaringizning yaqinda (so'nggi olti oy ichida) olingan fotosuratlari. Fotosuratlarning tuzilishi va texnik xususiyatlariga talablarni [raqamli fotosurat topshirish bo'limida](#) ko'ring. Allaqachon AQSh fuqarosi yoki AQSh qonuniy doimiy rezidenti bo'lgan turmush o'rtog'ingiz yoki farzandingiz uchun fotosurat topshirishingiz shart emas. Biroq, siz ular uchun ham fotosurat topshirsangiz, bu siz uchun muammo tug'dirmaydi.

DV dasturi arizalaridagi fotosuratlar AQSh vizalari uchun fotosuratlar bilan bir xil talablarga javob berishi shart. Agar o'zingiz va oila a'zolaringiz uchun topshirayotgan fotosuratlarining biror yo'l bilan o'zgartirilgan bo'lsa yoki bu talablarga to'liq muvofiq bo'lmasa, sizning arizangiz dasturdan chetlatiladi. Oldingi yil dasturiga topshirilgan rasmlarni qayta topshirish dasturdan chetlatilishga olib keladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi [raqamli fotosurat topshirish bo'limini](#) ko'ring.

8. Pochta manzili – Kimga  
Manzil 1-satr  
Manzil 2-satr  
Shahar  
Tuman/Mamlakat/Viloyat/Shtat  
Pochta indeksi/Mamlakat pochta indeksi

9. Siz hozir yashayotgan mamlakat.

10. Telefon raqami (ixtiyoriy).

11. Elektron pochta manzili - siz bevosita kirishingiz mumkin bo'lgan va keyingi yil may oyida ham bevosita kirishda davom eta oladigan elektron pochta manzilingiz. May oyida Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali arizangiz saralab olingani xaqida xabar topganiningizdan so'ng, immigratsion viza uchun suhbat aniq bo'lgan holatda, Davlat Departamenti tomonidan sizga immigratsion vizangizga oid batafsil ma'lumot elektron pochta orqali qo'shimcha yuboriladi. Davlat Departamenti hech qachon DV dasturida saralanganingiz haqidagi ma'lumotni elektron pochta manziliga jo'natmaydi. Saralash jarayoni haqida ko'shimcha ma'lumot uchun [Ko'p So'raladigan Savollarni](#) ko'ring.

12. Siz shu kunga qadar tugatgan eng yuqori ta'limg bosqichi: (1) faqat boshlang'ich ta'limg (2) to'liqsiz o'rta ta'limg, (3) to'liq o'rta ta'limg (4) kasbiy/o'rta maxsus ta'limg (5) to'liqsiz oliy ma'lumot, (6) bakalavr (7) tugallanmagan magistratura (8) magistr (9) doktorantura darajasida kurslar yoki (10) fan doktori. Ta'limg talablari haqida ko'shimcha ma'lumot uchun [Ko'p So'raladigan Savollarni](#) ko'ring.

13. Hozirgi oilaviy holatingiz – (1) Turmush qurmagan, (2) turmush qurgan va mening turmush o'rtog'im AQSh fuqarosi yoki AQSh Qonuniy Doimiy Rezidenti (LPR) EMAS, (3) turmush qurgan va mening turmush o'rtog'im AQSh fuqarosi yoki AQSh Qonuniy Doimiy Rezidenti (LPR), (4) ajrashgan, (5) beva yoki (6) qonuniy rasmiylashtirilgan alohida yashash. Turmush o'rtog'ingizning to'liq ismi va familiyasi, tug'ilgan sanasi, jinsi, tug'ilgan joyi va tug'ilgan mamlakatini kriting hamda turmush o'rtog'ingizning fotosurati ham o'zingiz uchun kiritishingiz kerak bo'lgan fotosurat kabi bir xil texnik talablarga muvofiqligiga ishonch hosil qilib topshiring.

Turmush o'rtog'ingizni arizaga kiritmaslik yoki turmush o'rtog'i bo'lmasligi shaxsning

ma'lumotlarini kiritishingiz, sizning dastur asosiy murojaat etuvchisi sifatida dasturdan chetlatilishingizga, shuningdek turmush o'rtog'ingiz va farzandlaringizni ham chetlatilishiga olib keladi. Siz turmush o'rtog'ingizdan alohida yashayotgan bo'lsangiz ham, faqatgina siz qonuniy rasmiylashtirilgan holda alohida yashayotgan bo'lmasangiz, turmush o'rtog'ingizni arizangizda ko'rsatishingiz shart. Qonuniy alohida yashash bu sud qaroriga asosan er-xotin nikohda qolishi, lekin alohida yashashini belgilovchi bitimdir. Agar siz turmush o'rtog'ingiz bilan qonuniy alohida yashayotgan bo'lsangiz, sizning turmush o'rtog'ingiz siz bilan DV dasturi orqali ko'chib keta olmaydi. Agar qonuniy alohida yashayotgan turmush o'rtog'ingizning ismini arizangizda ko'rsatsangiz, buning uchun siz jazolanmaysiz. Agar sizning alohida yashashlaringiz sud buyrug'iga asoslangan bo'lmasa, u holda hattoki siz DV vizasiga murojaat etishdan avval ajrashmoqchi bo'lsangiz ham, yoki turmush o'rtog'ingizning immigratsiya qilish maqsadi bo'lmasa ham, turmush o'rtog'ingizni kiritishingiz shart.

Agar turmush o'rtog'ingiz AQSh fuqarosi yoki AQSh qonuniy doimiy istiqomat qiluvchisi bo'lsa, uni arizangizda ko'rsatmang. Allaqachon AQSh fuqarosi yoki AQSh qonuniy doimiy istiqomat qiluvchisi bo'lgan turmush o'rtog'ingizga DV vizasi kerak bo'lmaydi va bunday viza berilmaydi. Shuning uchun, agar siz arizada "turmush qurgan va mening turmush o'rtog'im AQSh fuqarosi yoki AQSh Qonuniy Doimiy Rezidenti"ni tanlasangiz, turmush o'rtog'ingiz haqidagi keyingi ma'lumotlarni krita olmaysiz. Oila a'zolari haqida qo'shimcha ma'lumot uchun [Ko'p So'raladigan Savollar](#)ni ko'ring.

14. Farzandlar soni – Arizaga barcha hayot bo'lgan, turmush qurmagan va 21 yoshdan kichik farzandlaringizning ismlari va familiyalari, tug'ilgan sanalari, jinslari, tug'ilgan joylari va tug'ilgan mamlakatlarini kriting. Bunda, bu farzandlar siz bilan yashashi yoki yashamasligi, AQShga immigratsiya qilsangiz birga borishi yoki bormasligi yoki ketganiningizdan so'ng siz bilan AQShda birlashish istagi bor yoki yo'qligi e'tiborga olinmaydi. Har bir farzandingiz uchun o'zingizning fotosuratingiz kabi bir xil texnik talablarga muvofiq shaxsiy fotosuratlar topshiring.

Quyidagilarni albatta kriting:

- o Barcha hayot bo'lgan tug'ishgan farzandlaringizni;
- o Barcha hayot bo'lgan, siz qonuniy ravishda asrab olgan farzandlaringizni;
- o Barcha hayot bo'lgan o'gay farzandlaringizni, agar ular turmush qurmagan va elektron arizangizni topshirayotgan kun holatiga 21 yoshdan oshmagan bo'lsalar.

Bu farzandlarni hatto ularning ota/onasi bilan qonuniy nikohda bo'lmasangiz ham va hatto bu farzand hozirgi vaqtida siz bilan birga yashamasa ham va/yoki bu farzand siz bilan birgalikda immigratsiya qilmasa ham kiritish shart.

Turmush qurgan va ariza topshirayotgan kun holatiga 21 yoshdan oshgan farzandlar DV dasturida qatnashishi mumkin emas. Biroq, Bolalar Maqomini Himoyalash Akti ba'zi hollarda bolalarni "yoshi o'tib ketishidan" himoyalaydi. Agar DV dasturiga arizani turmush qurmagan farzandingiz 21 yoshga to'lishidan avval kiritgan bo'lsangiz, va farzandingiz viza berilishidan avval 21 yoshga to'lsa, unga nisbatan viza jarayonlari maqsadida 21 ga to'limgan shaxs sifatida munosabat ko'rsatilishi mumkin.

Allaqachon AQSh fuqarosi yoki qonuniy doimiy rezidenti bo'lgan farzandingizga DV vizasi kerak bo'lmaydi va bunday viza berilmaydi; bunday oila a'zolaringizni arizangizga kiritishingiz yoki kiritmasligingizdan qat'iy nazar, sizga nisbatan hech qanday chora ko'rilmaydi.

Talablarga javob beruvchi barcha farzandlarni arizada ko'rsatmaslik yoki farzandingiz bo'limgan shaxsni arizangizga kiritish sizni dasturdan chetlatilishingizga, shuningdek turmush o'rtog'ingiz va

farzandlaringizni ham chetlatilishiga olib keladi. Oila a'zolari haqida qo'shimcha ma'lumot uchun [Ko'p So'raladigan Savollarni](#) ko'ring.

DV-2025 dasturiga elektron arizani to'ldirib topshirish haqida qo'shimcha ma'lumot uchun [Ko'p So'raladigan Savollarni](#) ko'ring.

## **Ishtirokchilarining saralanishi**

Davlat Departamenti shaxslarni, har bir mintaqa va davlatga taqsimlangan vizalar mayjudligi asosida, barcha muvofiq arizalar orasidan komp'yuter tomonidan amalga oshiriladigan tasodifiy tanlov orqali saralaydi. DV-2025 dasturining barcha ishtirokchilari E-DVning Internet sahifasiga kirib, DV-2025ga elektron ariza topshirish vaqtida saqlab qo'ygan maxsus xususiy tasdiqlov raqamlaridan foydalanib, Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali o'z arizalarining DV dasturi uchun saralanganini aniqlashlari mumkin. E-DVning [dvprogram.state.gov](#) Internet sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish (Entrant Status Check) funksiyasi 2024 yil, 4- maydan boshlab 2025 yil, 30-sentyabrga qadar mavjud bo'ladi.

Agar arizangiz saralangan bo'lsa, siz qo'shimcha ko'rsatmalar hamda AQShga immigratsiyaga bog'liq to'lovlar haqidagi ma'lumot joylashgan tasdiqlov sahifasiga yo'naltirilasiz. Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) Davlat Departamenti DV-2025da saralangan ishtirokchilarining dasturda g'olib bo'lganlarini xabar qilishining YAGONA yo'li bo'ladi. Davlat Departamenti g'oliblarga xabarnomalarni pochta orqali jo'natmaydi yoki saralanganlarni elektron pochta orqali xabardor qilmaydi. AQSh elchixonalari va konsulliklari saralanganlar ro'yxatini taqdim etmaydilar. Arizalari saralanmagan shaxslar ham FAQAT Internetda Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali xabardor etiladilar. Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check)ga o'zingiz shaxsan kirishingizni qat'iyan maslahat beramiz. Arizangizni tekshirishni va sizni xabardor qilishni birovga ishonib topshirmang.

AQShga immigratsiya qilish uchun, DV (turli millatga mansub immigrantlar vizalari dasturi) g'oliblari AQSh Immigratsiya Qonunchiligiga muvofiq barcha viza olish talablariga javob berishlari shart. Elektron ravishda to'ldirilgan Onlayn Immigratsion Viza va Murojaatchini Ro'yxatga Olish Anketasi – DS-260da elektron ravishda va konsullik xodimi suhbat paytida shaxsan AQSh Qonunchiligiga asosan Sizning AQSh immigratsion vizasini olish talablariga javob berishingiz bo'yicha savollar so'raydi. Bu savollarga jinoiy va xavfsizlikka oid mavzular kiradi.

Barcha saralanganlarga va ularning oila a'zolariga vizalar 2025 yil 30 sentyabrga qadar berilishi shart. Davlat Departamenti mazkur kundan so'ng hech qanday holatda turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar bermaydi yoki AQSh Immigratsiya va Fuqarolik Xizmati (USCIS) maqom o'zgartirishlarini ma'qullamaydi; shu bilan birga, mazkur sanadan so'ng oila a'zolari ham o'zлari ro'yxatdan o'tgan arizadagi asosiy ishtirokchiga AQShda qo'shilish uchun turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalarni ololmaydilar. AQSh hukumati bir dastur yili davomida faqatgina 55,000ga yaqin DV vizalarni berish vakolatini bergen. Mavjud vizalar soni chegaralangani bois, saralab olingan murojaatchilar, tezlik bilan ariza va hujjatlarni topshirishlari zarur.

Ishtirokchilarini saralash jarayoni haqida qo'shimcha ma'lumot uchun [Ko'p So'raladigan Savollarni](#) ko'ring.

## **Raqamli fotosurat topshirish**

Siz yangi raqamli fotosurat olishingiz yoki oxirgi olti oy ichida olingan tayyor chop etilgan fotosuratni raqamli skanerden o'tkazishingiz mumkin. Bunda suratingiz quyida keltirilgan tuzilish va texnik

xususiyatlarga muvofiq bo‘lishi lozim. DV dasturi uchun fotosuratlar qo‘yiladigan talablar AQSh viza fotosuratlariga tegishli sifat va tuzilish talablari bilan bir xil. Talablarga javob beruvchi [fotosuratlar bilan mazkur sahifada](#) tanishishingiz mumkin. Olti oydan ko‘p muddat avval olingan yoki quyida keltirilgan barcha talablarga javob bermaydigan fotosuratlarni topshirmang. O‘tgan yilgi dasturga topshirilgan, o‘zgartirilgan yoki quyida keltirilgan talablarga muvofiq bo‘lmagan suratlarni topshirish dasturdan chetlatilishga olib keladi.

#### Fotosuratlarga talablar:

- Rangli;
- Ravshan (fokusda);
- Bosh (boshning soch tepasidan, iyak uchigacha bo‘lgan qismi o‘lchanadi) 22mm dan 35 mmgacha (1 dyuym va 1 3/8 dyuymgacha) o‘lchamda bo‘lishi yoki tasvirning jami uzunligining 50 foizidan 69 foizigacha bo‘lgan qismini qoplashi kerak. O‘lcham talablarini batafsil [Fotosurat Tuzilish Shabloni sahifasida](#) ko‘rib chiqing.
- Joriy tashqi ko‘rinishingizni tasvirlash uchun so‘nggi olti oy ichida olingan;
- Oq yoki oq rangga yaqin bir xil rangdagi fonda tushirilgan;
- Suratga olingan shaxs to‘g‘ri fotoapparatga yuzlanib turishi lozim.
- Yuz ifodasi neytral va ikkala ko‘z ochiq holda bo‘lishi kerak.
- Kundalik hayotda kiyib yuradigan kiyimingizda tushirilgan;
- Suratga uniforma kiyib tushish mumkin emas, kundalik kiyib yuriladigan diniy kiyimlar bundan mustasno;
- Soch va soch chegaralarini to‘sib turuvchi ro‘mol yoki bosh kiyimda suratga tushmang, agar bunday bosh kiyim diniy e’tiqodga bog‘liq bo‘lmasa. Yuzingiz butunlay ko‘rinib turishi shart va bosh kiyim yuzga soya tashlamasligi kerak.
- Fotosuratda qulorra taqiluvchi musiqa eshitish, telefonda so‘zlashish yoki shularga o‘xhash boshqa vositalarga ruxsat etilmaydi.
- Ko‘zoynak taqib suratga tushmang.
- Agar odadta eshitish apparati yoki shu kabi buyumlar taqsangiz, fotosuratda ularni taqish mumkin.

Talablarga javob beradigan va javob bermaydigan fotosuratlar namunalarini ko‘rish uchun [Fotosurat Namunalarini](#) ko‘zdan kechiring. Haydovchilik guvohnomalari va boshqa rasmiy hujjatlardan nusxasi olingan yoki skanerdan o‘tkazilgan fotosuratlar qabul qilinmaydi. Shuningdek, norasmiy fotosuratlar (aynan hujjatlar uchun tushirilmagan), jurnal fotosuratlari, fotobudkalarda tushirilgan yoki telefonda tushirilgan sifati past fotosuratlar hamda butun bo‘yli fotosuratlar ham qabil qilinmaydi.

Arizangizga raqamli fotosuratingizni yukлаshingiz shart. Raqamli fotosuratingizga talablar:

- Surat JPEG (.jpg) formatida bo‘lishi zarur.
- Suratning fayl hajmi 240 (ikki yuz qirq) kilobaytga teng yoki undan (240kV) oshmasligi zarur.
- Surat kvadrat mutanosiblikda (eni va balandligi teng) bo‘lishi shart.
- O‘lchamlari 600 x 600 piksel' o‘lchamda bo‘lishi kerak.

Tayyor fotosuratni skanerdan o‘tkazmoqchimisiz? Raqamli tasvirlar bo‘yicha talablarga qo‘shimcha ravishda, tayyor suratingiz yana quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 51mm x 51 mm o‘lchamda (2 dyuym x 2 dyuym)
- bir dyuymga kamida 300 piksel' ravshanlikda (bir millimetrga 12 piksel') skanerdan

o‘tkazilgan.

### **Go‘daklar yoki yosh bolalarning suratini olish**

Go‘dak yoki yosh bolangizning suratini olayotganda suratda boshqa biror shaxs tushib qolmasligi kerak. Bola ochiq ko‘zлari bilan fotoapparatga qarab tushishi kerak.

**1-maslahat:** Go‘dakni oq yoki oqqa yaqin bir xil rangli choyshabga orqasi bilan yotqizing. Shunda bolaning boshi tiralib turadi va bir xil rangli fon ta'minlanadi. Bolaning yuzida soyalar yo‘qligiga ishonch hosil qiling, ayniqsa suratni tepasidan tushirayotgan bo‘lsangiz.

**2-maslahat:** Bolalar uchun maxsus avtomobil' o‘rindig‘ini oq yoki oqqa yaqin bir xil rangli choyshab bilan qoplang va bolangizning suratini shu o‘rindiqda oling. Bunda ham bolaning boshi tiralib turgan bo‘ladi.

# KO'P SO'R ALADIGAN SAVOLLAR

## TALABLAR

### 1. “Muvofiqlik”, “hududida tug‘ilgan” va “tegishlilik” iboralari nimani anglatadi?

Hududida tug‘ilgan shaxs iborasi kimningdir biror davlatda tug‘ilganini anglatadi va bunda mazkur shaxsnинг hozir yashayotgan davlati va fuqaroligining ahamiyati yo‘q. Immigratsiya va fuqarolik haqida Qonunning 202(b) bo‘limiga ko‘ra, hududida tug‘ilgan shaxs atamasi, shuningdek, ma'lum bir shaxs tug‘ilgan davlatdan tashqari u tegishli bo‘lgan davlatni ham nazarda tutishi mumkin.

Muayyan mamlakat yoki jo‘g‘rofiy hududdan kirayotgan immigrantlar soniga miqdoriy cheklovlar o‘rnatalgani uchun har bir shaxs ma'lum mamlakatga tegishli deb belgilanadi. Sizning tegishliligingiz qaysi bir davlatning miqdoriy chekloviga nisbatan sanalishingizga taalluqli bo‘ladi. Odatda, sizning dasturga muvofiq davlatingiz sizning tug‘ilgan davlatingiz bilan bir xil bo‘ladi. Biroq, siz o‘zingizning dasturga muvofiq davlatingiz sifatida turmush o‘rtog‘ingizning tug‘ilgan davlatini yoki ota-onangizdan birining tug‘ilgan davlatini (agar siz ular tug‘ilmagan davlatda tug‘ilgan bo‘lsangiz va ular siz tug‘ilgan vaqtda o‘sha davlatda doimiy istiqomat qilmagan bo‘lsalar) ham tanlashingiz mumkin. Bular sizning qaysi davlatga tegishlilikni tanlashingizning yagona uchta yo‘lidir.

Muvofiq davlatda tug‘ilganlik yoki tegishlilikni noto‘g‘ri ko‘rsatish (asosli ravishda da’voni isbotlay olmaslik) arizaning 2025-yilgi dasturdan chetlatilishiga olib kelishi mumkin.

### 2. Muvofiq davlatda tug‘ilmagan bo‘lsam ham ishtirok etishim mumkinmi?

Buning uchun ikki holatdagina siz dasturga ariza berish talablariga mos bo‘lishingiz mumkin. Birinchisi, agar turmush o‘rtog‘ingiz muvofiq davlatda tug‘ilgan bo‘lsa, siz turmush o‘rtog‘ingiz tug‘ilgan davlatga tegishlilikni da‘vo qilishingiz mumkin. Sizning muvofiqligingiz turmush o‘rtog‘ingizga bog‘liq bo‘lganligi sababli, sizning turmush o‘rtog‘ingiz viza talablariga javob berib, bu vizani olishga muvaffaq bo‘lmagunga qadar, siz immigratsion vizasini olmaysiz. Siz DV vizalaringizdan foydalanib, Amerika Qo‘shma Shtatlariга turmush o‘rtog‘ingiz bilan birga kirishingiz kerak bo‘ladi. Shu tarzda balog‘atga yetmagan farzandingiz ham ota-onasining tug‘ilgan davlatiga “tegishlilik”ni da‘vo qilishi mumkin.

Ikkinci holat, agar ota-onangizdan birortasi, siz tug‘ilgan nomuvofiq mamlakatda tug‘ilmagan bo‘lsa yoki, siz tug‘ilgan vaqtda u davlatda qonuniy istiqomat qilmagan bo‘lsa, ota-onangizdan birining tug‘ilgan mamlakatiga “tegishli” bo‘lishingiz mumkin. Umuman, agar odamlar ma'lum bir davlatda tug‘ilmagan yoki u yerning qonuniy fuqarosi bo‘lmasa, u davlatning rezidentlari hisoblanmaydi. Misol uchun, ma'lum bir davlatga tashrif buyurish uchun, ta’lim olish yoki vaqtinchalik ishslash uchun kelgan shaxslar, odatda u davlatning rezidentlari (qonuniy istiqomat qiluvchilari) hisoblanmaydilar.

Agar siz boshqa davlatga tegishlilikka da‘vo qilsangiz, siz mazkur ma'lumotni E-DV arizasining 6-savolida ko‘rsatib o‘tishingiz darkor.

Muvofiq davlatda tug‘ilganlik yoki tegishlilikni noto‘g‘ri ko‘rsatish (asosli ravishda da’voni isbotlay olmaslik) arizaning dasturdan chetlatilishiga olib kelishi mumkin.

### 3. Nega ba'zi davlatlarda tug‘ilgan shaxslar turli millatlarga mansub immigrantlar vizalari dasturida qatnasha olmaydi?

Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar (DV) “ko‘p sonli immigrantlar jo‘natuvchi” mamlakatlardan bo‘lmaidan shaxslarga immigratsiya imkoniyatini berishga qaratilgan. AQSh qonunlarida belgilanishicha, “ko‘p sonli immigrantlar jo‘natuvchi” davlatlar sirasiga hududidan oilaviy va mehnat viza toifalarida AQShga so‘nggi besh yil davomida jami 50000 ta odam ko‘chib kelgan mamlakatlar kiradi. Har yili, AQSh Ichki Xavfsizlik Departamenti (DHS), yillik “Turli Millatlarga Mansub Immigrantlar Viza dasturi (DV) uchun nomuvofiq “ko‘p sonli immigrantlar jo‘natuvchi” davlatlarni aniqlash maqsadida, hududida so‘nggi besh yil ichidagi oilaviy va mehnat immigrantlari va maqomini o‘zgartirish holatlari sonini qo‘sib, hisoblab chiqadi. Bunday hisob-kitob AQSh Ichki Xavfsizlik Departamenti (DHS) tomonidan har yili amalga oshirilgani sababli hududida tug‘ilgan shaxslar muvofiq bo‘lmaidan davlatlar ro‘yxati yildan-yilga o‘zgarib turishi mumkin.

#### **4.Har bir muvofiq davlat va mintaqada tug‘ilgan shaxslarga DV-2025 vizalari qanday miqdorda taqsimlanadi?**

Immigratsiya va Fuqarolik Aktining (INA) 203(c)-bo‘limida belgilangan formuladan foydalanib, AQSh Ichki Xavfsizlik Departamenti (DHS) har yil uchun DVning mintaqaviy cheklovlarini aniqlaydi. Oqibatda, har bir davlatda tug‘ilgan shaxslarga Davlat Departamenti beradigan vizalar soni mintaqaviy cheklovlar har bir davlatdan topshirilgan arizalar soni va saralanganlar orasida nechtasi viza olish talablariga javob berishiga bog‘liq bo‘ladi. Hech bir davlatda tug‘ilgan shaxslarga dasturda mavjud vizalarning yetti foizidan ortig‘i berilmaydi.

#### **5. Ta’lim va ish tajribasiga talablar qanday?**

AQSh Immigratsiya qonunlari va me'yoriy hujjatlari talablariga ko‘ra, har bir DV ishtirokchisi eng kamida o‘rta yoki unga tenglashtirilgan ta’limga, yoki so‘nggi besh yilda ikki yillik malaka yoki ta’lim talab qiluvchi ishda ikki yillik tajribaga ega bo‘lishi kerak. “O‘rta yoki unga tenglashtirilgan ta’lim” tushunchasi Amerika Qo‘shma Shtatlarida boshlang‘ich va o‘rta ta’limdan iborat o‘n ikki yillik o‘qishni muvaffaqiyatli nihoyalash YOKI boshqa davlatda Qo‘shma Shtatlardagi o‘rta ta’limga teng rasmiy boshlang‘ich va o‘rta ta’limni muvaffaqiyatli tamomlashni bildiradi. Faqat rasmiy ta’lim yo‘nalishlari shu talabga javob beradi; sirtqi ta’lim yoki tenglashtirilgan ta’lim guvohnomalari (eksternat ta’lim shahodatnomasi) qabul qilinmaydi. Ta’lim yoki ish tajribasining hujjatlashtirilgan dalili viza uchun suhbat vaqtida konsullik bo‘limi xodimiga ko‘rsatilishi shart.

Agar siz ta’lim yoki ish tajribasi talablariga javob bermasangiz, sizning arizangizga rad javobi beriladi va sizga yoki hech bir oila a’zolaringizga vizalar berilmaydi.

#### **6. Qaysi kasblar turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturiga mos keladi?**

Davlat Departamenti mehnat malakasining muvofiqligini aniqlash uchun, AQSh Mehnat Departamentining (MD) [O\\*Net OnLine](#) ma'lumotlar bazasidan foydalanadi. Mehnat Departamentining (MD) [O\\*Net OnLine](#) ma'lumotlar bazasidagi mehnat malakasi guruhlari beshta “ish sohalariga” bo‘linadi. MD veb sahifasida ko‘plab kasblar sanab o‘tilganiga qaramasdan, ularning barchasi ham turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturi talablarini qondirmaydi. Mehnat malakangizga asoslanib, turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizaga muvofiq bo‘lish uchun siz so‘nggi besh yil ichida Maxsus Kasbiy Tayyorgarlik (SVP) doirasida 7.0 yoki undan yuqori guruhgaga kiritilgan ishda ikki yillik malakaga ega bo‘lishingiz kerak.

Agar siz ta’lim yoki ish tajribasi talablariga javob bermasangiz, sizning arizangizga rad javobi beriladi va sizga yoki hech bir oila a’zolaringizga vizalar berilmaydi.

## **7. Mehnat Departamentining veb-saytidagi [O\\*Net OnLine](#) ma'lumotlar bazasidan muvofiq kasblarni qanday qilib topaman?**

[O\\*Net OnLine](#) ma'lumotlar bazasiga kirganingizdan so'ng, kasbingizning muvofiqligini bilish uchun quyidagi tartibda ish tuting:

1. "Find Occupations" (Kasblarni topish) ga kirib, u yerda maxsus bo'lim "Job Family" (kasbiy soha) ni tanlang;
2. "Job Family" ro'yxatini ko'zdan kechirib, kerakli toifani tanlab, "GO"ni (Qidiruv) bosing;
3. So'ngra, aynan sizning kasbingizga tegishli manzilni tanlang.
4. Job Zone (Ish sohasi) bo'linmasini tanlab, u yerdan Ish sohasi raqami va Maxsus Kasbiy Tayyorgarlik (SVP)dagi reyting baholanishini toping.

Misol uchun, «Aerospace Engineering» (Aerofazo muhandisligi) ni tanlang. Aerofazo Muhandislari uchun Umumi Hisobotning ostida, Ish sohasi bo'limida siz Ish Sohasining raqami 4 va Maxsus Kasbiy Tayyorgarlik (SVP) dagi reyting 7,0 dan <8.0 gacha ekanligini ko'rasiz. Ushbu misolga qarasak, Aerofazo Muhandisligi dastur talablariga muvofiq ish sohasi hisoblanadi.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun, Turli Millat Vakillari uchun Immigratsion Vizalar Lotereyasi – [Kasblar Ro'yxatini](#) ko'ring.

## **8. E-DV dasturida ishtirok etuvchilar uchun eng kam yosh chegarasi bormi?**

Dasturda ishtirok etish uchun eng kam yosh chegara talabi yo'q, biroq har bir ishtirokchi uchun ariza qabul qilish vaqtida qo'yilgan o'rta ta'lif yoki ish malakasiga ega bo'lish talabi, 18 yoshdan kichik bo'lgan aksariyat shaxslarni samarali chetlatadi.

### ***DV DASTURI UCHUN ELEKTRON ARIZANI TO'LDIRISH***

## **9. Arizamni qachon topshirsam bo'ladi?**

DV-2025 arizalarini qabul qilish Sharqiy Yozgi Vaqt (EDT) (GMT-4) bilan 2023 yil 4 oktyabr', chorshanba kuni soat 12:00 dan boshlab, Sharqiy Standart Vaqt (EST) (GMT-5) bo'yicha 2023 yil, 7 noyabr', seshanba kunigacha bo'lgan ro'yxatga olish davrida amalga oshiriladi. Har yili millionlab kishilar ariza topshirishadi. Arizalar qabul qilish davrini shu sanalarga belgilash saralanganlarni o'z vaqtida ogohlantirishni ta'minlaydi hamda vizaga murojaat etuvchilar va bizning elchixona va konsulliklarimizga viza berish uchun murojaatlarni vaqtida tayyorlash va tugallash uchun yetarli vaqtga ega bo'lishlariga imkon yaratadi.

Biz ro'yxatga olish davrida barvaqt ariza topshirishingizni maslahat beramiz. Ro'yxatga olish davrining so'ngida o'ta yuqori talab tizimni sekinlashtirib qo'yishi mumkin. Biz 2023yil, 7 noyabr', seshanba kuni EST bo'yicha 12:00 dan so'ng hech qanday arizalarни qabul qila olmaymiz.

## **10. Men AQShdaman. DV dasturiga ariza topshirsam bo'ladimi?**

Ha, arizachi AQSh yoki boshqa davlatdan turib ariza topshirish mumkin. Ariza istalgan joydan topshirilishi mumkin.

## **11. Ro‘yxatga olish davrida faqat bir marta ariza topshirishim mumkinmi?**

Ha, qonun bo‘yicha har ro‘yxatga olish davrida bir shaxs uchun faqat bitta arizaga ruxsat berilgan. Davlat Departamenti birdan ortiq arizalar topshirgan shaxslarni aniqlash uchun murakkab texnologiyalarni qo‘llaydi. Bittadan ortiq ariza topshirganlar dasturdan chetlatiladilar (diskvalifikasiya).

## **12. Men va turmush o‘rtog‘im har birimiz alohida ariza topshirishimiz mumkinmi?**

Ha, agar er bilan xotinning har biri muvofiqlik talablarini qondira olsa, alohida ariza topshirishlari mumkin. Agar biri tanlansa, ikkinchisi oila a’zosi (yaqin qarindosh) sifatida murojaat etish huquqiga ega bo‘ladi.

## **13. DV arizamaga oila a'zolarimdan kimlarni kiritishim shart?**

**Turmush o‘rtog‘ingiz:** Agar qonuniy nikohda bo‘lsangiz, turmush o‘rtog‘ingizni birga yashash yoki yashamasligingizdan yoki uning siz bilan AQShga immigratsiya qilish niyati bor yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar, arizangizga kiritishingiz shart. Siz turmush o‘rtog‘ingizdan alohida yashayotgan bo‘lsangiz ham, faqatgina siz qonuniy rasmiylashtirilgan holda alohida yashayotgan bo‘lmasangiz, turmush o‘rtog‘ingizni arizangizda ko‘rsatishingiz shart. Qonuniy alohida yashash bu sud qaroriga asosan, er-xotin nikohda qolishi lekin alohida yashashini belgilovchi bitimdir. Agar siz turmush o‘rtog‘ingiz bilan qonuniy alohida yashayotgan bo‘lsangiz, sizning turmush o‘rtog‘ingiz siz bilan DV dasturi orqali ko‘chib keta olmaydi. Agar qonuniy alohida yashayotgan turmush o‘rtog‘ingizning ismini arizangizda ko‘rsatsangiz ham buning uchun siz jazolanmaysiz. Agar sizning alohida yashashlaringiz sud buyrug‘iga asoslangan bo‘lmasa, u holda turmush o‘rtog‘ingizni kiritishingiz shart, hattoki siz DV vizasiga murojaat etishdan avval ajrashmoqchi bo‘lsangiz ham. Talablarga muvofiq turmush o‘rtog‘ingizni arizaga kiritmaslik yoki qonuniy turmush o‘rtog‘ingiz bo‘lmagan shaxsning ma'lumotlarini kiritish dasturdan chetlatilishga (diskvalifikasiya) asosdir. Agar ariza topshirayotgan vaqtningizda qonuniy nikohdan o‘tmagan bo‘lsangiz, lekin kelajakda nikohingizni ro‘yxatdan o‘tkazishni rejalashtirayotgan bo‘lsangiz, arizangizda turmush o‘rtoq haqida ma'lumotlar kiritmang, chunki bu dasturdan chetlatilishingizga (diskvalifikasiyaga) olib keladi. Agar qonuniy ajrashgan bo‘lsangiz yoki turmush o‘rtog‘ingiz vafot etgan bo‘lsa, sobiq turmush o‘rtog‘ingizning ismini arizangizga kiritishingiz shart emas.

Bu talabdan yagona istisno sizning turmush o‘rtog‘ingiz allaqachon AQSh fuqarosi yoki AQSh qonuniy doimiy istiqomat qiluvchisi ekanligi. Agar turmush o‘rtog‘ingiz AQSh fuqarosi yoki AQSh qonuniy doimiy istiqomat qiluvchisi bo‘lsa, uni arizangizda ko‘rsatmang. Allaqachon AQSh fuqarosi yoki AQSh qonuniy doimiy istiqomat qiluvchisi bo‘lgan turmush o‘rtog‘ingizga DV vizasi kerak bo‘lmaydi va bunday viza berilmaydi. Shuning uchun, agar siz arizada “turush qurbanman va mening turmush o‘rtog‘im AQSh fuqarosi yoki AQSh Qonuniy Doimiy Rezidenti”ni tanlasangiz, turmush o‘rtog‘ingiz haqidagi keyingi ma'lumotlarni krita olmaysiz.

**Farzandlar:** Siz BARCHA hayot bo‘lgan, arizangizni topshirish vaqtida 21 yoshga yetmagan va turmush qurmagan farzandlaringizni, shu jumladan sizning tug‘ishgan farzandlaringiz, o‘gay farzandlaringiz (hatto shu farzandning otasi yoki onasidan ajrashgan bo‘lsangiz xam), turmush o‘rtog‘ingizning farzandlarini va tegishli qonunlar asosida asrab olgan farzandlaringizni arizangizga kiritishingiz shart. Hatto DV arizasini to‘ldirayotgan vaqtningizda 21 yoshdan kichik bo‘lgan bolalaringiz siz bilan birga yashamasa, yoki ularning DV dasturi bo‘yicha immigratsiya qilishini ko‘zlamasangiz ham ularni arizaga kriting. Sizdan allaqachon AQSh fuqarosi yoki Qonuniy Doimiy Rezidenti bo‘lgan farzandlarni kiritish talab qilinmaydi, garchi ularni arizaga kiritganingiz uchun sizga nisbatan hech qanday chora ko‘rilmasa ham.

Ariza beruvchining ota-onasi, aka-uka va opa-singillari oila a'zolari sifatida DV vizasini olish imkoniyatiga ega emaslar. Shu sababli bu oila a'zolaringizni arizaga kiritmang.

Arizangizga oila a'zolaringizni kirlitsangiz, ular vizaga murojaat etishlari, siz bilan immigratsiya qilishlari yoki birga safar qilishlari majburiy emas. Biroq, agar siz qaramog'ingizdagi dastur talablariga muvofiq bo'lgan oila a'zoingizni dastlabki arizangizga kiritmasangiz yoki oila a'zosi bo'limgan shaxsni arizangizga kirlitsangiz, sizni dasturdan chetlatilishingizga, shuningdek turmush o'rtog'ingiz va farzandlaringizni ham chetlatilishiga olib keladi. Bu holat faqat dastlabki ariza topshirilgan vaqtdagi oila a'zolariga tegishli bo'lib, keyin qo'shilganlarga taalluqli emasdir. Sizning turmush o'rtog'ingiz sizning arizangizga kiritilganiga qaramasdan, alohida arizasini topshirishi mumkin va shu bilan birga ikkala ariza ham oilangiz qaramog'idagi barcha oila a'zolar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak ([Ko'p so'raladigan savollarda 13-savolni ko'ring](#)).

**14. Arizamni shaxsan o'zim topshirishim shartmi yoki biror kishi mening o'rnimdan topshirib berishi mumkinmi?**

Sizni arizangizni o'zingiz tayyorlab topshirishingizni maslahat beramiz, lekin biror boshqa kishi arizani sizning nomingizdan kiritishi mumkin. Arizani shaxsan o'zingiz topshirsangiz ham, yoki yurist, do'st, qarindosh va boshqalar sizning nomingizdan topshirsa ham, bir shaxs nomidan faqatgina bitta ariza topshirilishi mumkin. Siz, ya'nı murojaat etuvchi, arizangizdagi ma'lumotning to'g'ri va to'liqligiga javobgarsiz; noto'g'ri va to'liq to'ldirilmagan arizalar dasturdan chetlatilishi mumkin. Murojaat etuvchilar o'zlarining tasdiqlov raqamlarini o'zlarida olib qolishlari kerak, chunki uning yordamida o'zları mustaqil ravishda o'z arizalarining maqomlarini [dvprogram.state.gov](#) sahifasida Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali tekshira oladilar. Murojaatchilar E-DVda ko'rsatgan elektron pochtaga kirish huquqlarini saqlab qo'yishlari kerak.

**15. Men allaqachon boshqa toifadagi immigratsion viza uchun ro'yxatga olinganman. Shunga qaramasdan DV dasturida ishtiroy etishim mumkinmi?**

Ha.

**16. E-DV arizasini Internetdan komp'yuterga ko'chirib olib, matn tahrirchi dasturda saqlab, keyinroq tugatishim mumkinmi?**

Yo'q, siz ariza formasini boshqa dasturda saqlab qo'yib, keyin to'ldirib, topshirishingizning imkoni yo'q. E-DV ariza formasi veb shaklida xolos. Ma'lumotlar on-layn rejimida kiritilishi va topshirilishi talab qilinadi.

**17. E-DV arizasini Internetda onlayn rejimida saqlab qo'yib, keyinroq tugatishim mumkinmi?**

Yo'q. E-DV ariza shakli bir vaqtida to'ldirib topshirish uchun mo'ljallangan. Ariza shaklini yuklab olgan vaqtindan boshlab, uni to'ldirib E-DV Internet sahifasi orqali topshirishingiz uchun oltmis (60) daqiqa vaqt beriladi. Agar siz oltmis daqiqli cheklangan vaqt davomida to'liq arizangizni topshirishga ulgurmasangiz, barcha avval kiritilgan ma'lumotlarining o'chirib tashlanadi. Tizim to'liq bo'limgan barcha arizalarni o'chirishining sababi – bunday arizalar keyinchalik topshirilgan to'liq arizalarning takroriy nusxasi (dublikati) deb xato qilinishining oldini olishdir. Turli Millatlarga Mansub Immigrantlar Vizalari (DV) Dasturi Yo'riqnomalari bilan arizani to'ldirishni boshlashdan avval, batafsil o'qib chiqing. Shunda sizga qanday ma'lumotlar kerakligini aniq bilasiz.

**18. Agar menda skanerdan foydalanish imkoni bo'lmasa, fotosuratlarimni AQShda biror kishiga**

**jo‘natib, skanerdan o‘tkazdirib, saqlab, menga yuborishini so‘rashim va shu jo‘natilgan fotosuratlardan arizamda foydalanishim mumkinmi?**

Ha, fotosurat yo‘riqnomadagi talablarga javob bersa va E-DV arizasi bilan bir vaqtida elektron shaklda topshirilsa, bunga yo‘l qo‘yiladi. Siz fotosuratni avvaldan skanerdan o‘tkazib qo‘yib, so‘ng uning faylini on-layn rejimida anketa bilan topshirishingiz lozim. Fotosuratni on-layn arizadan alohida topshirish mumkin emas. Butun ariza (otosurat va ariza birgalikda) AQSh yoki xorijdan elektron tarzda topshirilishi mumkin.

## **19. Agar tizim mening E-DV arizamni rad etsa, men arizamni qayta topshirmsam bo‘ladimi?**

Ha, arizangizni 2023 yil 07 noyabr’, seshanba kuni Sharqiy Standart Vaqt (GMT-5) bo‘yicha 12:00 gacha to‘ldirilib topshirsangiz bo‘ladi. E-DV tizimi birinchi arizangizni rad etsa, qayta ariza topshirganingiz uchun sizga nisbatan jazo chorasi ko‘rilmaydi. Internetning harakatlarini oldindan aytish murakkabligi tufayli, rad etilganlik xaqidagi xabarni darhol olmasligingiz mumkin. Siz toki to‘liq ariza qabul qilib olinib, tasdiq xabari jo‘natilgunga qadar, necha marta zarur bo‘lsa, shuncha marta ariza topshirishga harakat qilishingiz mumkin. Tasdiqlov xabarini olganingiz arizangiz topshirilganidan dark beradi va bu xabarnoma olingach, arizani qayta topshirishga harakat QILMANG.

## **20. Arizamni topshirganidan keyin elektron tasdiqlov xabarnomasini qanchalik tez olaman?**

Tasdiqlov xabarnomasi, shu jumladan, siz yozib olib, saqlab qo‘yishingiz zarur bo‘lgan tasdiqlov raqami sizga darhol yetib kelishi kerak. Ammo Internet sistemalarining faoliyatini oldindan aytish murakkabligi, ba’zi kechikishlarga sabab bo‘lishi mumkin. To‘liq ariza qabul qilinib, tasdiq xabari jo‘natilguniga qadar “SUBMIT” tugmasini qayta-qayta bosishingiz mumkin. Biroq, tasdiqlovchi ma'lumot sahifasi chiqqandan so‘ng, o‘z ma'lumotlaringizni qayta kiritmang.

## **21. Men **SUBMIT** tugmasini bosdim, lekin tasdiqlov raqamini olmadim. Agar men boshqa ariza topshirmsam, dasturdan chetlatilamanmi?**

Agar siz tasdiqlov raqamini olmagan bo‘lsangiz, sizning arizangiz ro‘yxatdan o‘tmagan. Siz boshqa ariza topshirishingiz kerak. Bu takroriy deb hisoblanmaydi. Tasdiqlov raqamini olganingizdan so‘ng, ma'lumotlaringizni qayta topshirmang.

## ***ISHTIROKCHILARNING SARALANISHI***

### **22. Arizam saralanganini qanday bilib olaman?**

2024 yil, 4 may oyidan to 2025 yil, 30 sentyabrgacha o‘z tasdiqlov raqamingizdan foydalanib, E-DV [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov) veb sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) ga kirishingiz mumkin bo‘ladi. Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) arizangiz saralanganligi haqida ma'lumot olish, murojaat qilish jarayonidagi navbatdagi bosqichlar bilan tanishib chiqish va immigratsion vizaga murojaat etish uchun suhbatingiz qachon bo‘lib o‘tishidan xabardor bo‘lishning yagona yo‘li bo‘ladi. Barcha mavjud vizalardan foydalanishni ta‘minlash uchun, Davlat Departamenti 2024 yil, 4 maydan keyin qo‘srimcha saralanganlarni xabardor etish uchun Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check)dan foydalanishi mumkin. Biror o‘zgarishlar ehtimoli uchun tasdiqlov raqamingizni 2025 yil, 30 sentyabrgacha saqlab qo‘ying. Davlat Departamenti tomonidan ma‘qullangan Turli Millatlarga Mansub Immigrantlar uchun Vizalar (DV) Dasturiga ariza berish va Arizachi Maqomini Tekshirish uchun Internetdagи yagona sahifa - [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov).

Davlat Departamenti, sizning arizangiz saralab olingani (g'olib bo'lganingiz) haqida xabar berish uchun siz bilan BOG'LANMAYDI. ([Ko'p So'raladigan Savollarda 25-savolni](#) ko'ring).

## **23. Agar saralanganlar qatorida bo'lmasam, buni qanday bilib olaman? Menga xabar keladimi?**

Agar sizning arizangiz tanlab olinmagan bo'lsa, Davlat Departamenti sizni to'g'ridan-to'g'ri bu haqda xabardor ETMAYDI. Siz saralab olinganingizni bilish uchun Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasidan foydalanishingiz shart. DV-2025ga topshirgan arizangiz maqomini 2024 yil, 4 maydan to 2025 yil, 30 sentyabrgacha E-DV veb sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali tekshirishingiz mumkin. Tasdiqlov raqamingizni kamida 2025 yil, 30 sentyabrgacha saqlab qo'ying. (O'tgan yilgi dastur – DV-2024 natijasi haqidagi ma'lumotlar 2024 yil, 30 sentyabrgacha bo'lgan muddat davomida internetda mavjud bo'ladi).

## **24. Tasdiqlov raqamimni yo'qotib qo'ysam nima bo'ladi?**

Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check)ga kira olishingiz uchun tasdiqlov raqamingiz bo'lishi shart. Hozirda, E-DV sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check)da o'zingizning ba'zi shaxsiy ma'lumotlaringizni kiritganingizdan so'ng, arizangizda ko'rsatgan elektron pochta manzilingizga tasdiqlov raqamini yuborish imkonini beruvchi funksiya mavjud.

AQSh elchixonalari va konsulliklari hamda Kentukki Konsullik Markazi (KKM) sizning maqomingizni tekshirish yoki tasdiqlov raqamingizni sizga bevosita taqdim etish (yuqoridagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasida mavjud raqamni tiklash funksiyasidan tashqari) imkoniyatlariiga ega emaslar. Davlat Departamenti viza jarayonlarini davom ettirish uchun saralanganlar ro'yxatini TAQDIM ETA OLMAYDI.

## **25. Men Davlat Departamentidan elektron pochta yoki oddiy pochta orqali ma'lumot olamanmi?**

Davlat Departamenti sizga xabarnoma xati yubormaydi. AQSh hukumati hech qachon tanlangan shaxslarni xabardor etish uchun elektron pochta orqali xabarlar jo'natmagan va DV-2025 dasturida ham bu maqsadda elektron pochtadan foydalanish rejalar yo'q. Saralangan bo'lsangiz, faqatgina Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi orqali xabardor etish ko'rsatmalariga javob berganingizdan so'ng, elektron pochta orqali suhbatingiz kuni va vaqt to'g'risida xat olasiz. Bunday elektron pochta xatlari Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi orqali suhbat vaqtalarini bilib olishga ko'rsatma beradi xolos va xatning o'zida suhbat belgilangan kun va vaqt haqida ma'lumot bo'lmaydi. Davlat Departamenti DV dasturi murojaatchilariga Arizachi Maqomini Tekshirish funksiyasi orqali ularning arizalarining maqomini tekshirishlarini eslatish maqsadida elektron xatlar yuborishi mumkin. Biroq, bu xatlar arizachi DV dasturda g'olib bo'lgan yoki bo'lmanligini ko'rsatmaydi.

Faqatgina manzili ".gov" qo'shimchasi bilan tugaydigan veb-saytlar rasmiy AQSh hukumati saytlari hisoblanadi. Ko'plab boshqa veb-saytlar (masalan, manzillari ".com" yoki ".org" yoki ".net" qo'shimchalari bilan tugaydigan saytlar) immigratsiya va vizaga taalluqli axborot taqdim etadilar va xizmatlar ko'rsatadilar. Davlat Departamenti shu boshqa veb-saytlarda berilgan hech qanday axborot yoki materiallarni qo'llab-quvvatlamaydi, tavsiya qilmaydi yoki ularga homiylik ko'rsatmaydi.

**Ogohlantirish:** Ba'zi veb-saytlar sizni chalg'itib, o'zlariga pul jo'natishga yoki shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etishga undab, sizga elektron pochta orqali xat yuborishi mumkin. Sizdan Davlat Departamentining [travel.state.gov](http://travel.state.gov) veb-sayti yoki AQSh elchixona va konsulligi veb-saytlarida tekin beriluvchi immigratsiya tartib-qoidalari haqida ma'lumot va formalar uchun to'lov undirishga harakat

qilinishi mumkin. Qo'shimcha ravishda, tashkilotlar va veb-saytlar sizdan "Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar" dasturiga bog'liq to'lovlar olib, sizning pulingizni o'zlashtirishga harakat qilishi mumkin. Siz mazkur nodavlat tashkilotlari yoki veb saytlardan birortasiga pulingizni jo'natsangiz, uni qaytib ko'rishingiz amri mahol. Bundan tashqari, mazkur veb-saytlarga biror shaxsiy ma'lumotningizni jo'natmang, chunki bu shaxsiy axborotingiz o'g'irlanishi yoki shaxsiy ma'lumot bo'yicha firibgarlik singari jinoyatlarga olib kelishi mumkin.

Bu yolg'on elektron pochta xatlari o'zini Davlat Departamenti Kentukki Konsullik Markaziga aloqador deb ko'rsatuvchi shaxslardan kelishi mumkin. **Shuni yodda tutingki, AQSh hukumati hech qachon arizachilarga dasturda g'olib bo'lganliklarini xabardor etish uchun elektron xatlar jo'natmagan va DV-2025 dasturida ham shu maqsadda elektron xatlardan foydalanish rejasi yo'q.** Davlat Departamenti hech qachon sizdan pochta yoki Western Union (Western Union) kabi xizmatlar orqali pul jo'natishni so'ramaydi (USCISga maqomni o'zgartirish bo'yicha murojaat uchun to'lovi yuborish bundan istisno). Maqomni o'zgartirish bo'yicha batafsил ma'lumot uchun ushbu saytga o'ting.

## 26. DV-2025 uchun necha kishi saralab olinadi?

DV-2025 uchun 55000 ta DV vizalar ajratilgan. Davlat Departamenti tomonidan, saralangan shaxslardan ba'zilari viza talablariga javob bermasliklari yoki ishlarini viza olish bosqichigacha davom ettira olmasliklari hisobga olgan holda, 55,000dan ortiq ishtirokchilar saralab olinadi. Bu, saralab olingan barcha ishtirokchilar uchun vizalar soni yetmay qolishi mumkinligini anglatadi. Davlat Departamenti ushbu jarayonni, 55,000dan imkon qadar ko'proq vizalarni taqdim etish uchun amalga oshiradi.

Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali arizangiz saralanganini aniqlashingiz va saralangan bo'lsa, ishtirokchilar ro'yxatidagi o'z o'rningizni bilib olishingiz mumkin. DV-2025 dasturi uchun suhbatdan avval talab qilinadigan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etgan saralanganlar suhbatlari 2024 yil oktyabridan boshlanadi. Barcha talab qilinadigan ma'lumotlarni taqdim etgan saralangan ishtirokchilar, xorijda joylashgan AQSh konsullikkleri xodimlari bilan belgilangan suhbatlaridan 4-6 hafta oldin E-DV Internet sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali suhbat vaqtлari haqida ogohlantiriladilar.

Har oy, o'sha oyda viza olishga tayyor ishtirokchilar uchun, vizalar tartib raqami to'g'ri kelish sharti bilan, vizalar beriladi. Barcha 55000ta DV vizalari berib bo'lingach, shu yilgi dastur nihoyasiga yetadi. Vizalar 2025 yil sentyabridan oldin tarqatilib bo'lishi ham mumkin. Viza olishni xohlovchi saralanganlar tez harakat qilishga tayyor bo'lishlari kerak. **Tasodifiy tanlov orqali saralanish sizga viza olishingizning va hatto vizaga murojaat etib, suhbat kuni belgilanishining kafolatini bermaydi.** Tanlov faqatgina siz DV dasturi bo'yicha vizaga murojaat etishingiz mumkinligini bildiradi. Agar ish raqamingiz yakuniy jarayonlardan o'tish uchun to'g'ri kelsa, vizaga murojaat etishingiz va potentsial ravishda DV dasturi bo'yicha vizani qo'lga kiritishingiz mumkin. Ushbu viza murojaatchilariga maksimal **55000** vizalar berilishi mumkin.

## 27. Muvaffaqiyatli ishtirokchilar qanday saralanadi?

Ishtirokchilar 2024 yil, 4 maydan boshlab to 2025 yil, 30 sentyabrga qadar E-DVning [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov) internet sahifasida joylashgan Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali saralanganlari haqida rasman xabardor qilinadilar. Davlat Departamenti saralanganlik xabarnomalari yoki xatlarni pochta yoki elektron pochta orqali jo'natmaydi. Davlat Departamentidan kelmagan DV tanlovida saralanganligingiz xususida xat

yoki elektron pochta orqali xabarnoma haqiqiy emas. Davlat Departamentidan sizga yuborilgan har qanday elektron xatlar murojaatingizga bog'liq bo'lgan yangiliklarni ko'rish uchun Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasini ko'rib chiqishingizga ko'rsatma beradi. Davlat Departamenti sizdan, pochta yoki Western Union singari xizmatlar orqali pul jo'natishni hech qachon so'ramaydi. Maqomni o'zgartirish holati bundan istisno. Maqomni o'zgartirish bo'yicha batafsil ma'lumot uchun [ushbu saytga](#) o'ting.

Har bir mintaqadan qabul qilib olingan barcha arizalar alohida raqamlanadi, va ro'yxatga olish davri nihoyasida, komp'yuter har bir jug'rofiy mintaqaga bo'yicha qabul qilib olingan arizalarni tasodifiy tanlash yo'li bilan saralab oladi. Har bir mintaqaga ichida bиринчи saralab olingan ariza ro'yxatdan o'tgan bиринчи ish bo'lib, ikkinchisi esa ikkinchi bo'lib ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi va hokazo. Ro'yxatga olish davrida qabul qilingan barcha arizalarning o'z mintaqasi ichida tanlab olinish ehtimoli teng. Ariza saralangan taqdirda ishtirokchi 2024 yil, 4 maydan boshlab E-DVning [dvprogram.state.gov](#) Internet sahifasida joylashgan Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check) orqali xabardor qilinadi. Agar arizangiz saralansa va siz Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi (Entrant Status Check)dagi ko'rsatmalarga binoan javob bersangiz, Davlat Departamenti Kentukki Konsullik Markazi (KKM), to vizaga ariza beruvchi bo'lib saralanganlar AQSh Elchixonasi yoki Konsulligiga viza uchun suhabatga kelishlari xususida yo'l-yo'riq olmaguncha, yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridagi maqomini o'zgartirishga murojaat etayotganlar AQShdagi Fuqarolik va Immigratsiya Xizmati (USCIS)ga murojaat qilmagunlariga qadar ishni olib borishda davom etaveradi.

## **28. Men allaqachon AQShdaman. Agar saralanganlar qatorida bo'lsam, AQShda maqomimni AQSh Fuqarolik va Immigratsiya Xizmati USCIS orqali o'zgartirishim mumkinmi?**

Ha, agar siz AQSh Immigratsiya va Fuqarolik Aktining 245-bo'limida ko'rsatilgan maqomingizni o'zgartirish talablariga muvofiq bo'lsangiz, o'z maqomingizni doimiy rezidentga o'zgartirish uchun USCIS ga murojaat qilishingiz mumkin. Siz USCIS 2025 yil 30 sentyabrgacha o'z murojaatingiz, jumladan xorijidagi turmush o'rtoq yoki 21 yoshdan kichik bo'lgan farzandlaringizning murojaatlari bo'yicha jarayonlarni tugata olishiga ishonch hosil qilishingiz kerak, chunki aynan shu kunda DV-2025 dasturiga muvofiqligingizning amal qilish muddati tugaydi. Davlat Departamenti hech qanday holatda 2025 yil, 30 sentyabr' 00:00 dan so'ng DV-2025 dasturi uchun hech qanday viza raqamlari bermaydi va hech qanday maqom o'zgartirishlarini amalga oshirmaydi.

## **29. Agar saralanganlar qatorida bo'lsam, DV vizasiga qanday muddat ichida murojaat etishga haqliman?**

Agar DV-2025 dasturida saralangan bo'lsangiz, faqat AQSh hukumatining 2025- soliq yili mobaynida vizaga murojaat etishingiz mumkin, ya'ni 2024 yil, 1 oktyabrdan, 2025 yil, 30 sentyabrgacha. Saralaganlarga yakuniy jarayonlardan o'tish uchun ish raqamlari to'g'ri kelishi bilanoq imkon qadar ertaroq vizaga murojaat etishlari tavsiya etiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, barcha 50,000ta vizalar taqdim etilgach, dastur o'z nihoyasiga yetadi.

**Hech qanday istisnolarsiz, barcha saralangan va muvofiq ishtirokchilar soliq yili nihoyasigacha vizalarini olishlari yoki maqomlarini o'zgartirishlari shart.** Saralangan, lekin vizalarini 2025 yil, 30 sentyabrgacha (soliq yili nihoyasigacha) olishga ulgurmaganlar uchun DV imtiyozlari keyingi yilga o'tkazilmaydi. Shu tarzda arizachilarning turmush o'rtoqlari va farzandlari o'zlarining DV oila a'zosi sifatidagi vizalarini ham 2024 yil, 1 oktyabrdan, 2025 yil, 30 sentyabrgacha olishlari mumkin xolos. AQShdan tashqarida murojaat etayotganlar, Departament tomonidan Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi orqali o'z suhabatlari belgilangan kundan to'rt-olti hafta avval suhabat vaqtлari haqida xabardor etiladilar.

### **30. Agar DV dasturida saralangan shaxs vafot etsa, uning ishi nima bo‘ladi?**

Agar DV dasturida saralangan shaxs AQShga yetib borishdan avval yoki maqomini o‘zgartirishdan avval vafot etsa, DV ishi avtomatik ravishda yopiladi. Vafot etgan saralangan shaxsning turmush o‘rtog‘i va/yoki farzandlari ham shu vaqtidan boshlab DV vizasiga ega bo‘lishga haqlari bo‘lmaydi. Ularga berilgan har qanday vizalar bekor qilinadi.

### ***TO‘LOVLAR***

### **31. DV dasturiga ariza topshirish uchun qancha haq to‘lash kerak?**

**Elektron arizani topshirish uchun hech qanday to‘lov undirilmaydi.** Biroq, agar arizangiz saralansa, viza arizasini topshirish jarayonida barcha talab qilinadigan viza to‘lovlarini bevosita AQSh Elchixonasi yoki Konsulligidagi konsullik g‘aznachisiga to‘lashingiz zarur. Qo‘shma Shtatlar hududida saralangan shaxs bo‘lsangiz, USCIS orqali o‘z maqomingizni o‘zgartirish uchun barcha talab qilinadigan to‘lovlarini bevosita USCISga amalga oshirasiz. Turli millatlarga mansub immigrantlar vizasi va immigratsion viza arizasi to‘lovleri haqida tafsilotlarni E-DVning [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov) Internet sahifasi orqali beriladigan yo‘riqnomalardan olishingiz mumkin bo‘ladi.

### **32. Agar saralansam, DV vizasiga bog‘liq to‘lovlarini qanday va qayerda to‘layman?**

Agar tasodifiy tanlov yo‘li bilan saralangan arizachi bo‘lsangiz, DV vizasiga murojaat etish jarayonlari haqida [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov) sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasi orqali yo‘riqnomalar olasiz. Siz barcha to‘lovlarini shaxsan AQSh elchixonasi yoki konsulligida viza murojaati va suhbat vaqtida amalga oshirasiz. Konsullik g‘aznachisi o‘sha zahotiyoy sizga AQSh hukumatining to‘lov tasdiqnomasini (kvitantsiya) beradi. Agar AQSh elchixonasi yoki konsulligida immigratsion vizaga murojaat etayotgan bo‘lsangiz, DV to‘lovleri uchun hech kimga pochta, Western Union, yoki boshqa har qanday yetkazib berish xizmatlaridan foydalanib pul jo‘natmang.

Agar saralangan bo‘lsangiz va allaqachon AQShda bo‘lsangiz hamda USCIS orqali o‘z maqomingizni o‘zgartirishni rejalashtirsangiz, [dvprogram.state.gov](http://dvprogram.state.gov) sahifasidagi Arizachi Maqomini Tekshirish Funksiyasida mavjud bo‘lgan yo‘riqnomalarda AQSh bankiga DV to‘lovlarini jo‘natish haqida ma'lumotlar berilgan.

### **33. Agar DVga murojaat etsam, ammo viza olish talablariga nomuvofiqligim tufayli viza olish imkoniyatim bo‘lmasa, amalga oshirgan to‘lovlarimni qaytarib olsam bo‘ladimi?**

Yo‘q. Viza to‘lovleri qaytarib berilmaydi. Siz ushbu yo‘riqnomada ta’kidlangan barcha viza talablariga javob berishingiz shart. Agar Konsul sizning viza talablariga javob bermasligingizni aniqlasa yoki AQSh qonuni bo‘yicha viza olishingiz uchun taqiq qo‘ylsa, Konsul viza bera olmaydi va to‘lagan barcha to‘lovlarining ushlab qolinadi.

### ***VIZA OLISHDA BELGILANGAN QONUNIY TAQIQLAR***

### **34. DV vizasiga murojaat etgan shaxs sifatida, biror viza olishga qonuniy taqiqlardan istisno qilinishim mumkinmi? Mening istisno qilishga bergen arizam biror imtiyozli jarayondan o‘tkaziladimi?**

DV arizachilari Immigratsiya va Fuqarolik Aktida belgilangan immigratsion vizalar berilishiga qo‘yilgan

barcha taqiqlarga bo‘ysunadilar. Immigratsiya va Fuqarolik Aktida belgilanganidan tashqari, viza olishga qo‘yilgan taqiqlardan istisno sifatida ozod qilish yoki ozod qilinish haqida arizalarni alohida ko‘rib chiqishga oid maxsus moddalar yo‘q. Yaqin qarindoshlari -AQSh fuqarolari yoki AQSh doimiy qonuniy rezidentlari bo‘lgan qatnashchilar uchun taqiqlardan istisno sifatida ozod etish bo‘yicha ba’zi umumiy jarayonlar nazarda tutilgan bo‘lishiga qaramasdan, DV dasturining vaqt bilan cheklanganligi bu qatnashchilar mazkur jarayonlardan samarali foydalanihini murakkablashtiradi.

## **DV DASTURIGA OID FIRIBGARLIK DAN OGOK BO’LING**

### **35. Internetdagи firibgarlik va so‘rovsiz elektron pochta xatlari haqida qayerga murojaat etib, ma'lumot berishim mumkin?**

Iltimos, [econsumer.gov](#) veb-saytiga murojaat qiling. Bu sahifa Federal Savdo Komissiyasi tomonidan boshqariladi va 36 davlatning iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish organlarining qo‘shma sa'y-harakatlarini jamlaydi. Shuningdek, firibgarlik haqida Federal Tergov Byurosining (FBI) [Internetda jinoyatga qarshi shikoyat markaziga](#) ma'lumot berishingiz mumkin. So‘rovsiz yuborilayotgan elektron xatlar ustidan shikoyat uchun [econsumer.gov](#) veb-saytidagi “Telemarketing va Ruxsatsiz Yuboriladigan Xatlar” ga oid shikoyatlar funktsiyasidan foydalaning yoki [Adliya Vazirligi veb-saytiga](#) kirib, qo‘srimcha ma'lumot va bog‘lanish uchun manzil va raqamlar uchun “So‘rovsiz Tijorat Xatlari (Spam)” sahifasi bilan tanishib chiqing.

## **DV DASTURI STATISTIKASI**

### **36. DV-2025 dasturida beriladigan vizalar soni nechta?**

Qonunga ko‘ra, har yili talablarga muvofiq shaxslar uchun eng ko‘pi bilan 55000 ta viza mavjud.

## **UMUMIY SAVOLLAR**

### **37. Agar DV dasturi bo‘yicha viza olsam, AQSh hukumati AQShga yetib olishim uchun samolyot biletini to‘lab, menga u yerda ish va uy-joy topishimda yordam berib, va/yoki men batamom o‘rnashib olgunimcha tibbiy yordam va biror yordam puli bilan ta’minlab turadimi?**

Yo‘q. DV dasturi bo‘yicha viza olsangiz, AQSh hukumati siz sanab o‘tgan xizmatlarning birortasini ko‘rsatmaydi. DV vizasiga murojaat etish uchun saralangan bo‘lsangiz, sizga viza berilishidan avval, siz AQShda davlat qaramog‘iga tushib qolmasligingizni isbotlashingiz kerak. Agar dasturda saralanganlar qatorida bo‘lsangiz, Davlat Departamentining jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlaridan davlat qaramog‘iga tushib qolish ehtimoli qanday baholanishi va qay turdag‘i dalillar sizning davlat qaramog‘iga tushib qolmasligingizni namoyish eta olishi haqida o‘rganib chiqing.

## **DV-2025 TALABALARIGA MUVOFIQ BO'LGAN MAMLAKATLAR HUDUDIDA TUG'ILGAN SHAXSLAR UCHUN MINTAQА BO'YLAB RO'YXAT**

Quyidagi ro'yxatda har bir jo'g'rofiy mintaqqa bo'ylab hududida tug'ilgan shaxslar DV-2025ga muvofiq bo'lgan mamlakatlar keltirilgan. Xorijdagi hududlar o'zları qaram bo'lgan davlat mintaqasining ro'yxatiga kiritilgan. Hududida tug'ilgan shaxslar DV-2025 dasturi uchun nomuvofiq bo'lgan mamlakatlar AQSh Ichki Xavfsizlik Departamenti (DHS) tomonidan Immigratsiya va fuqarolik haqida Qonunning 203(c) bo'limidagi formulaga binoan aniqlandi. Hududida tug'ilgan shaxslar mazkur turli millatlarga mansub immigrantlar DV dasturiga muvofiq bo'lmasan mamlakatlar (chunki ular oilaviy va mehnat sabablariga ko'ra immigrantlikning asosiy manbaidir, yoki immigrantlik ko'rsatkichi yuqori mamlakatlardir) tegishli mintaqaviy ro'yxatlardan so'ng belgilangan.

### **AFRIKA**

Jazoir	Liberiya
Angola	Liviya
Benin	Madagaskar
Botsvana	Malavi
Burkina Faso	Mali
Burundi	Mavritaniya
Kamerun	Mavrikiy
Kabo Verde	Marokash
Markaziy Afrika Respublikasi	Mozambik
Chad	Namibiya
Komor orollari	Niger
Kongo	Ruanda
Kongo Demokratik Respublikasi	San Tome va Prinsipi
Kot d'Ivuar	Senegal
Jibuti	Seyshel orollari
Misr*	S'erra Leone
Ekvatorial Gvineya	Somali
Eritreya	Janubiy Afrika
Esvatini	Janubiy Sudan
Efiopiya	Sudan
Gabon	Tanzaniya
Gambiya	Togo
Gana	Tunis
Gvineya	Uganda
Gvineya-Bissau	Zambiya
Keniya	Zimbabwe
Lesoto	

Afrika bo'yicha bu yilgi turli millatlarga mansub immigrantlar dasturida Nigeriyada tug'ilgan shaxslar muvofiq **emas**.

### **OSIYO**

Afg'oniston	Butan
Bahreyn	Bruney

Birma	Nepal
Kambodja	Shimoliy Koreya
Indoneziya	Ummon
Eron	Qatar
Iraq	Saudiya Arabiston
Isroil*	Singapur
Yaponiya***	Shri Lanka
Iordaniya*	Suriya*
Quvayt	Tayvan'**
Laos	Tailand
Livan	Timor-Leste
Malayziya	Birlashgan Arab Amirliklari
Mal'div orollari	Yaman
Mongoliya	

\*1967 yilning iyun' oyigacha Isroil, Iordaniya, Suriya va Misr tomonidan boshqarilgan hududlarda tug'ilgan shaxslar, mutanosib ravishda Isroil, Iordaniya, Suriya va Misrga tegishli bo'ladilar. G'azo hududida tug'ilgan shaxslar Misrga tegishli. Iordan daryosining G'arbiy Qirg'og'ida tug'ilgan shaxslar Iordaniyaga tegishli. Golan Tepaliklari hududida tug'ilgan shaxslar Suriyaga tegishli.

\*\* Makau M.M.O. (Yevropa hududi, Portugaliyaga tegishli) va Tayvan' (Osiyo hududi) **muvofiq bo'lib**, ro'yxatga kiritilgan. Faqtagina turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturi miqyosida, Makau M.M.Oda tug'ilgan shaxslar muvofiqlikni Portugaliya hisobidan oladilar.

\*\*\*Xabomay orollari, Shikotan, Kunashiri va Etorofuda tug'ilganlar Yaponiyaga tegishli bo'ladilar. Janubiy Saxalinda tug'ilganlar Rossiyaga tegishli hisoblanadilar.

Quyidagi Osiyo davlatlarida tug'ilgan shaxslar mazkur yildagi Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturiga muvofiq **emas**: Bangladesh, Xitoy (shu jumladan Gonkong), Hindiston, Pokiston, Janubiy Koreya, Filippin, va V'etnam.

## **YEVROPA**

Albaniya	Xorvatiya
Andorra	Kipr
Armaniston	Chexiya Respublikasi
Avstriya	Daniya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)
Ozarbayjon	Estoniya
Belarus'	Finlandiya
Bel'giya	Fransiya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)
Bosniya va Gersegovina	
Bolgariya	

Gruziya	Norvegiya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)
Germaniya	Pol'sha
Gretsya	Portugaliya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)
Vengriya	Ruminiya
Islandiya	Rossiya****
Irlandiya	San Marino
Italiya	Serbiya
Qozog'iston	Slovakiya
Kosovo	Sloveniya
Qirg'iziston	Ispaniya
Latviya	Shvetsiya
Lixtenshteyn	Shveytsariya
Litva	Tojikiston
Lyuksemburg	Turkiya
Makau Maxsus Ma'muriy Okrugi**	Turkmaniston
Shimoliy Makedoniya	Ukraina
Mal'ta	Birlashgan Qirollik (va unga qaram hududlar)
Moldova	O'zbekiston
Monako	Vatikan shahri
Chernogoriya	
Niderlandiya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)	
Shimoliy Irlandiya***	

\*\* Makau M.M.O. **muvofiq bo'lib**, shu yerda sanab o'tilgan. Faqatgina turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturi miqyosida, Makau M.M.Oda tug'ilgan shaxslar muvofiqlikni Portugaliya hisobidan oladilar.

\*\*\* Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturi miqyosidagina, Shimoliy Irlandiyaga o'zga yondashuv bilan qaraldi. Shimoliy Irlandiya muvofiq bo'lib, muvofiq davlatlar ro'yxatiga kiritildi.

\*\*\*\* Xabomay orollari, Shikotan, Kunashiri va Etorofuda tug'ilganlar Yaponiyaga tegishli bo'ladilar. Janubiy Saxalinda tug'ilganlar Rossiyaga tegishli hisoblanadilar.

Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya) hamda unga qaram bo'lgan hududlar DV-2025 dastur yilida **muvofiqdir**. Buyuk Britaniya (Birlashgan Qirollik) quyidagi qaram hududlarni o'z ichiga oladi: Anguilla, Bermuda, Britaniya Virjiniya orollari, Britaniya Hind Okeani hududlari, Kayman orollari, Fol'kland orollari, Gibraltar, Monserrat, Pitkairn, Janubiy Djordjiya va Janubiy Sendvich orollari, Muqaddas Yelena, Turk va Kaykos orollari.

## **SHIMOLIY AMERIKA**

Bagama orollari

Shimoliy Amerikada Kanada va Meksika hududida tug‘ilgan shaxslar bu yilgi Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturida ishtirok etishga **nomuvofiqdir**.

## **OKEANIYA**

Avstraliya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)  
Fiji  
Kiribati  
Marshal orollari  
Mikroneziya, Nauru  
Federativ Shtatlari  
Yangi Zelandiya (uning tarkibi va xorijdagi qaram hududlari)

Palau  
Papua Yangi Gvineya  
Samoa  
Solomon orollari  
Tonga  
Tuvalu  
Vanuatu

## **JANUBIY AMERIKA, MARKAZIY AMERIKA VA KARIB OROLLARI**

Antigua va Barbuda	
Argentina	
Barbados	Nikaragua
Beliz	Panama
Boliviya	Paragvay
Chili	Peru
Kosta Rika	Sent Kristofer va Nevis
Kuba	Sent Lyusiya
Dominika	Sent Vinsent va Grenadinlar
Ekvador	Surinam
Grenada	Trinidad va Tobago
Gvatemala	Urugvay
Gayana	

Mintaqada mazkur yildagi Turli millatlarga mansub immigrantlar uchun vizalar dasturiga hududida tug‘ilgan shaxslar **nomuvofiq** bo‘lgan davlatlar: Braziliya, Kolumbiya, Dominikana Respublikasi, Sal‘vador, Gaiti, Gonduras, Yamayka, Meksika va Venesuela.